

3/2024,
may-
iyun
(№ 00071)



O'ZBEKISTONDA INNOVATSION TADBIRKORLIK VA VENCHUR FONDLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Chulliyev Suhrob Rabbonaqlulovich

NavDPI "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" kafedrasi katta o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD). Navoi, O'zbekiston

E-mail: suhrobchulliyev@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-6442-410X>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss3/i1

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlik va venchur fondlarni qo'llab quvvatlashda inovatsion infratuzilmalarning, xususan, texnoparklarning ahamiyati atroflicha yoritib berilgan. Venchur fondi, venchur investitsiyaning qanday tartibda ishlashi, uning harakati ilmiy jihatdan asoslangan, hamda tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion tadbirkorlik, texnopark, venchur kapital, texnologiya, venchur fond, venchur investitsiyalash.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОДДЕРЖКИ ИННОВАЦИОННОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ВЕНЧУРНЫХ ФОНДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Чуллийев Сухроб Раббонакулович

Старший преподаватель кафедры НавГПИ «География и основы экономических знаний», доктор философии по экономическим наукам (PhD). Навои, Узбекистан.

Аннотация

В данной статье подробно рассмотрено значение инновационных инфраструктур, в частности технопарков, в поддержке инновационного предпринимательства и венчурных фондов в Узбекистане. Венчурный фонд, как работает венчурное инвестирование, его действие научно обосновано, даны соответствующие предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Инновации, инновационное предпринимательство, технопарк, венчурный капитал, технологии, венчурный фонд, венчурное инвестирование.

PRIORITY AREAS OF SUPPORTING INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP AND VENTURE FUNDS IN UZBEKISTAN

Chulliyev Suhrob Rabbonaqlulovich

Senior teacher of the NavSPI department "Geography and basic economic knowledge", Doctor of Philosophy in Economic Sciences (PhD). Navoi, Uzbekistan.

Abstract

In this article, the importance of innovative infrastructures, in particular technology parks, in supporting innovative entrepreneurship and venture funds in Uzbekistan is detailed. Venture fund,

how venture investment works, its action is scientifically based, and relevant suggestions and recommendations are given.

Keywords: Innovation, innovative entrepreneurship, technopark, venture capital, technology, venture fund, venture investment.

Kirish (Introduction/Введение)

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga kapital oqimini ta'minlashga qodir innovatsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbai vechur investitsiyalari hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar vechur kapitalidan innovatsiyalarni moliyalashtirish vositasi sifatida foydalanib samarali natijalarga erishgan.

Mamlakatda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to'sqinlik qiluvchi bir qator tizimli muammolar mavjudligi ularning yechimi bo'yicha hukumat tomonidan bir qator qaror va farmonlarining ishlab chiqilishiga olib keldi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi qonuni (2020 y.), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son ““O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son “2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2018 yil 24 noyabrdagi PF-5583-son “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari, 2018 yil 5 maydagi PQ-3697-son “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyotning soha va tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”, 2018 yil 6 avgustdagi PQ-3899-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”, 2018 yil 14 iyuldagi PQ-3855-son “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 3 noyabrdagi 684-sonli “«UZVC» milliy vechur fondi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2019 yil 17 maydagi 414-son “Investitsiya va boshqaruv kompaniyalari faoliyati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”, 2021 yil 27 avgustdagi 545-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari hamda Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shakllantirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi. [26]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

G.S.Gamidov, V.G. Kolosov, N.O.Osmanovlar [1] o'z ishida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida yangi texnologiyalar, innovatsiyalarning muhimligini ko'rsatib o'tishgan.

Xorijlik olimlardan P.Gompers va J.Lerner [2] o'z ishlarida vechur kapitalining ahamiyati, moliyaviy bozordagi o'rni va innovatsion jarayonlarning har bir bosqichida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha vechur kapitalistlari ishlab chiqqan ko'plab mexanizmlarini tahlil qilgan.

Rossiyalik olim Yu.P.Ammosov [3] o'z kitobida vechur kapitalizmining paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, uning yuqori texnologiyalar rivojlanishi va yangi tez o'suvchi texnologik kompaniyalar tashkil etilishidagi rolini ko'rib chiqqan. Uning ishi vechur kapitalining iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, texnologik va madaniy tomonlarini tahlil qiladi.

Iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga fan-texnika taraqqiyotining ta’sirini o’rgangan avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning [4] “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli ishida innovatsiyalarning mazmuni ochib berilgan.

Sh.A. Atamuradov [5] o’z tadqiqot ishida innovatsion tadbirkorlik faoliyatini venchur fondlari orqali moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalarini ko’rib chiqqan.

Daminova M.B. [6], Salimov Sh [9], Pavlov E [8]lar innovatsion tadbirkorlikni rivojlanishida texnoparklarning innovatsion infratuzilma sifatida venchur moliyalashtirishga ko’maklashish masalalarini ko’rib chiqishgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur maqolada iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning innovatsion tadbirkorlikni venchur kapitali orqali moliyalashtirilishi bo’yicha tajribalarini shu sohada tadqiqot olib brogan yetakchi olimlar ilmiy ishlari natijalarini, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, qiyoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotga investitsiya jalb qilish, xususan, xorijiy kapitalni jalb etish dolzarb masala hisoblanadi. Har qanday hududda investitsion faoliyatni yo’lga qo’yish uchun esa, o’sha hududda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay infrastrukturani tashkil etish dolzarb hisoblanadi. Ushbu muammoni maxsus iqtisodiy hududlar (MIH), texnoparklar, industrial parklar, texnologiya transferi, innovatsion markazlarini ochish hamda davlat-xususiy sheriklikda amalga oshirish orqali bartaraf etish mumkin bo’ladi.

Texnoparklar bu ilmiy tashkilotlar, konstruktorlik byurolari, o’quv muassasalari, sanoat korxonalari yoki ularning birlashmasi shaklida bo’lib, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning hududiy integratsiyalashuv shakli sifatida namoyon bo’ladi.[6]

Texnoparklarning bajaradigan vazifalari, hajmi va xususiyatiga ko’ra besh xil turi ajratiladi.[7,8]

1. Innovatsion markazlar - yuqori texnologiyalar bilan bog’liq bo’lgan yangi firmalarga yordam ko’rsatadigan markaz hisoblanadi. Innovatsion markazlarga G’arbiy Germaniya markazlarini misol qilib keltirish mumkin. Xususan, Berlin Innovatsion Markazi yig’ish va rivojlantirish ishlari bilan shug’ullanadigan kompaniyalar uchun biznes inkubator hisoblanadi. U tashkilotlarga moliyaviy, texnologik va tashkiliy masalalarni hal qilishda yordam beradi.

2. Ilmiy-tadqiqot parklari - yangi va yetuk firmalarga xizmat ko’rsatadigan ilmiy va tadqiqot parklari yoki universitetlar bilan yaqin aloqalarni o’rnatadi. Masalan, Kembrij ilmiy parkida elektronika, asbobsozlik, dasturiy ta’minot va boshqa sohalarni qamrab oladigan 400 dan ortiq yuqori texnologiyali kichik firmalar faoliyat ko’rsatadi, shuningdek, ushbu ilmiy park o’z faoliyatida (tadqiqot, ishlab chiqarish, konsalting) turlicha bo’lgan yangi venchur kapital firmalarini nazorat qiladi.

3. Texnologiyalar parklari ixtiyorida bilimlarni talab qiladigan firmalarning butun tarmog’i va ishlab chiqarish mavjud, ammo universitetlar yoki ilmiy-tadqiqot institutlari bilan mustahkam aloqalar o’rnatilmagan.

4. Texnologik markazlar - bu yangi yuqori texnologiyali firmalarni rivojlantirish uchun yaratilgan servis korxonalaridir. Ularning asosiy vazifasi bilim talab qiladigan kichik biznesni rivojlantirishdir. Ularning soni ayniqsa AQShda juda ko’p (400 dan ortiq). Masalan, mahalliy


texnologiya institutiga asoslangan Jorjiya mukammallashtirish markazi. Markaz tashkil topgan kundan boshlab dastlabki uch yil ichida yangi firmalarga maslahat beradi va ularga moliyaviy yordam beradi.

5. Texnologiyalar va ilmiy parklarning konglomeratlari (kamarlari), ularning maqsadi butun mintaqalarni yuqori texnologik zonalarga aylantirishdir. Eng taniqli konglomerat dunyoga mashhur Silikon vodiysi bo'lib, u ko'plab ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, institutlari, ilm-fanni talab qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalardan iborat.

Zamonaviy texnoparklar alohida, o'ziga xos markazlar bo'lib, ular o'z ichiga turli xil tarmoq yo'nalishlari mutaxassislarini birlashtiradi, ular texnologiyalar bilan erkin almashadigan bozorda harakat qiluvchi tadqiqotchilarni, ishlab chiqaruvchilar va texnologiyalarni iste'mol qiluvchilarni erkin axborot almashish va kommunikatsiya qilish uchun uchrashtiradigan joy hisoblanadi. Zamonaviy texnoparklarning samarasi ularning tadqiqotlar olib borish salohiyatining diversifikatsiyalashuviga bog'liq. [9]


Bugungi kunda mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sheriklikda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va hajmini oshirish, xalqaro moliya tashkilotlari va jamg'armalari mablag'larini jalb qilish hamda tadbirkorlikka zarur ko'nikmalarni texnoparklar, innovatsion markazlar va yoshlar texnoparklari orqali kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni talab etmoqda.

Startup loyihalarni moliyalashtirish natijasida 150 dan ortiq kichik va o'rta biznes korxonalari tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda ularning jami ishlab chiqarish quvvati 138,0 mlrd. so'mdan ortiq. Ushbu korxonalarda 200 dan ortiq yangi va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishi hamda xizmatlar ko'rsatilish yo'lga qo'yilgan. (1-rasm)



1-rasm. 2018-2022 yillarda Respublikada mavjud startup loyihalar soni.[05]

Innovatsion infratuzilma sub'yektlari tarmog'ini shakllantirish orqali startup tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Aytish joiz, so'nggi yillarda mamlakatimizda innovatsion infratuzilma mustahkamlanib, 11 ta innovatsion markaz, 8 ta texnopark hamda inkubatsiya va akselariya markazlari, innovatsion loyihalarni sinovdan o'tkazish bo'yicha tajriba maydonchasi, chekka huddular uchun "DMS" teletibbiyot innovatsion klinikalari yaratildi. (2-rasm)



2-rasm. 2018-2022 yillarda Respublikada mavjud innovatsion infratuzilmalar tarkibi, %.

Yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, ilmiy-texnologik va innovatsion tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlash, kichik innovatsiya korxonalarini tashkil etish, milliy va xorijiy bozorlarda raqobatbardosh, ilmiy-hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishni va yetkazib berishni yo'lga qo'yish uchun qulay muhit shakllantirish maqsadida so'nggi 5 yil ichida respublikamizda 19 ta innovatsion infratuzilmalar (texnopark, biznes-inkubator, biznes-akselerator, kovorking markazi kabi) tashkil etildi.

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent va Navoiy viloyatlarida umumiy qiymati 40,8 mlrd. so'm bo'lgan 6 ta Yoshlar texnoparklari barpo etildi. [10]

Ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirish yuqori xavfli investitsiya sanaladi, negaki u uzoq muddatli moliyalashtirishni talab qiladi va avvaldan aytib bo'lmaydigan natijalarga olib keladi. Shunga qaramay, dunyoning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyoti innovatsiyalarni joriy etish va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu sohalarida moliyalashtirishning "keskin" tanqisligi kuzatiladi, shuning uchun iloji boricha ko'proq manbalardan moliya jalb qilish uchun sharoit yaratish talab etiladi. Xususan, investitsiyalarni jalb qilish jarayonlarini soddalashtirish, zamonaviy moliyaviy vositalar uchun qonun hujjatlarini yangilash va h.k. zarurati vujudga keladi. O'zbekistonda ikkinchi darajali banklardan tashqari, ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi to'rtta davlat jamg'armasi mavjud, shuningdek, Jahon banki, OTB, ITB, BMTTD va YUNESKO kabi bir qancha xalqaro tashkilotlar faoliyat yuritadi. [11]

O'zbekistonda innovatsion va ilmiy loyihalarni tijoratlashtirish uchun maxsus iqtisodiy zonalar va texnoparklar tashkil etilgan. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi, qayta ishlash, farmatsevtika, mashinanoslik, qurilish kabi ustuvor iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha 23 ta EIZ va 15 ta texnopark mavjud bo'lib, ulardan 6 tasi yoshlar texnoparklaridir. Jami 9 ta hudud texnoparklar bilan qamrab olingan bo'lsa, Toshkent shahrida 5 ta va Andijon shahrida bitta texnopark joylashgan. EIZning vazifalariga mahalliy va xorijiy kapitalni jalb

qilish, ilg'or texnologiyalarni transfer qilish va boshqaruv tajribasini jamlash kiradi. Texnoparklarning asosiy vazifasi mamlakatning innovatsion infratuzilmasini o'z ichiga oluvchi innovatsion faoliyat sub'yektlarini tashkil etishdir. [11]

Texnoparklarni tashkil etishning ikki yo'li mavjud:

1. Stixiyali yo'l.
2. Imperativ yo'l.

Stixiyali yo'l bilan tashkil etiladigan texnoparklar qoloq hududni rivojlantirish, ishsizlik yuqori bo'lgan hududlarda ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida tashkil qilinadi.

Imperativ yo'l bilan texnoparklar tashkil etishda tashabbus va chora-tadbirlar texnoparkni tashkil etishga qaratiladi.

Muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan texnoparklar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ammo, texnoparklarda ilmiy-ijodiy muhit shakllanganligi sababli ularning innovatsion kompaniyalarni rivojlantirishdagi roli muhimroqdir. Texnoparklar innovatsion g'oyalar shakllanishiga kuchli turtki beradi.

Texnoparklar o'zlarida yaratilgan innovatsion ishlanmalar orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Davlatning texnoparklarni tashkil etishdagi roli quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Texnoparklarni tashkil etish xarajatlarining bir qismini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish.
2. Texnoparklarga soliq imtiyozlari berish.
3. Texnoparklarni davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan kompaniyalar orqali qo'llab-quvvatlash.
4. Texnoparklarga davlat buyurtmalari berish.

Bugungi kunda Respublikani innovatsion rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan bir qator muhim chora-tadbirlar ta'lim, fan va ishlab chiqarishni uyg'unlashtirish, ilmiy-texnikaviy yutuqlarni tijoratlashtirishga tadbirkorlik sub'yektlarini jalb qilish uchun zarur shart-sharoit yaratmoqda.

2018-2022 yillar mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent va Navoiy viloyatlarida umumiy qiymati 40,8 mlrd. so'm bo'lgan 6 ta Yoshlar texnoparklari barpo etildi. Yoshlarning "startap" loyihalarini rivojlantirish va ularni amalga oshirish uchun yagona maydon tashkil etish orqali hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish maqsadida Yoshlar texnoparklarida ilmiy va innovatsion faoliyatga 1500 nafar yoshlar jalb qilinib, akseleratsiya dasturlari yo'lga qo'yildi. [10]


2017 yilda tashkil etilgan "Yashnobod" innovatsion texnoparki rezidentlari tomonidan hozirgi kungacha jami 957,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, shundan eksport hajmi 9,5 mln. dollarni tashkil etmoqda. Mazkur loyihalar doirasida rezidentlar tomonidan 12,4 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilgan hamda 357 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan. [13]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "...amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni tadbirkorlik faoliyati bilan birlashtirish imkoniyatini beruvchi amaliy mexanizmni tashkil etishimiz lozim. Bu esa bir tomondan, innovatsion biznesni rivojlantirishga imkoniyat yaratsa, ikkinchi tomondan, ilmiy tadqiqotlarning samarasini oshirish uchun investitsiyalar oqimini ko'paytirishni ta'minlaydi". [12]

Davlat ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning amal qilish muddati tugagandan so‘ng, ishlab chiqarishda ularning qo‘llanilishini hisobga olib, amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini tatbiq qilishda ustuvor moliyalashtirishni ta‘minlaydi. Dasturlarni moliyalashtirish manfaatdor tomonlarning ishtirokida qaytariladigan asosda amalga oshiriladi. Texnologik parklar hukumat tomonidan tashkil etilgan, axborot texnologiyalari hamda innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etishga yo‘naltirilgan yuridik shaxsdir. Xorij tajribasida texnopolislar hamda texnoparklarning tarkibiy qismi hisoblangan ventur kapitali yuqori xavf ostida innovatsion ishlanmalar hamda texnologik yangiliklar yaratilishini moliyalashtirish maqsadida ishlatiladi. Iqtisodiyot tarixida ilk ventur fondlar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan jamg‘armalar sifatida tashkil etilgan. Chunki moliyalashtirilayotgan innovatsiyaning ishlab chiqarish jarayonida samara berishi yoki bermasligi yuqori darajadagi xavf hisoblanadi. Innovatsion ishlanma samara bermagan sharoitda ventur sarmoyachi foyda olmaydi, lekin aksincha bo‘lganda, katta foyda ko‘rish mumkin va davlat ham iqtisodiyotning rivojlanishini rag‘batlantirish maqsadida (katta xavf darajasini ham bashorat qilgan holda) innovatsion ishlanmalarni moliyalashtiradi. Yuqori xavf darajasi sababli ventur fondlar davlat va yirik transmilliy kompaniyalar tomonidan tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini amalga oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratiladi. Farmonning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 105-bandiga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga qiymati qariyb 14 mlrd.dollardan iborat bo‘lgan 154 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. [14]

Jamiyatning rivojlanishi uchun quyidagi sub‘yektning (davlat, mulkdor va tadbirkorlar) imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tashkil qilinishi, mamlakatimizning bugungi taraqqiyot bosqichida ob‘yektiv zaruriyatga aylandi. Buni inobatga olib mamlakatimizda mazkur masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 maydagi O‘RQ-537-sonli “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” Qonuni qabul qilindi.

DXSh ishtirokchilari ham qonun doirasida faoliyat ko‘rsatish uchun, belgilangan tartibda birlashadi. Bularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (3-rasm).



3-rasm. Davlat-xususiy sheriklik ishtirokchilarining o‘zaro bog‘liqligi. [15]

Davlat va xususiy sheriklikdan faqat xususiy mulkdorlar (investorlar va tadbirkorlar) emas, balki davlat ham, aholi ham manfaatdordir. Xususan, investorlar o‘zlarining mablag‘ini investitsiya qilib, tegishli foyda olishga erishsa, tadbirkorlar o‘zlarining tadbirkorlik faoliyati evaziga foyda oladilar. Davlatning manfaatdorligi, bevosita aholi

manfaatdorligi bilan qo‘shilib ketadi. Birinchidan, yangi ish joylari yaratilib, bandlik masalasida o‘nglanishlar ro‘y beradi, ikkinchidan, bularning daromadlari evaziga davlat budjetiga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushishi ortadi. Uchinchidan, bevosita ishsizlarning ish o‘rinlariga ega bo‘lishi evaziga jamiyatimizda kambag‘allik qisqaradi va aholining farovonligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Bizning fikrimizcha, innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini ular tomonidan yaratilayotgan yirik hajmli ilmiy-tadqiqot hamda innovatsion loyihalarni davlat grantlari va venchur kapitalini birlashtirish asosida moliyalashtirish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Xususan, Respublikada innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitalini, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sheriklikda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va hajmini oshirish, xalqaro moliya tashkilotlari va jamg‘armalari mablag‘larini jalb qilish hamda tadbirkorlikka zarur ko‘nikmalarni texnoparklar, innovatsion markazlar va yoshlar texnoparklari orqali kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi besh yillikda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasida, ilmiy-texnik ishlanmalarni davlat va jamiyat hayotining barcha sohalariga joriy qilishda va tijoratlashtirishda bir qator amaliy va samarali yangi mexanizmlar joriy qilindi.

Natijada, 2018–2022 yillarda ilmiy va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan 455,1 mlrd. so‘m miqdorida ilmiy ishlanmalar tijoratlashtirildi, shundan 366,8 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi (324,8 mlrd. so‘mlik mahsulot sotilgan va 88,3 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi). [10]

Investitsiya loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha: 2018-2022 yillarda 87 ta investitsiya loyihalari amalga oshirilgan bo‘lib, loyihalar doirasida jami 68,6 mln. AQSh dollar investitsiyalar jalb qilingan, shundan 33,7 mln. AQSh dollari xorijiy investitsiyalarni tashkil etadi. [10]

2022-2026 yillarda amalga oshirilishi belgilangan innovatsiyaga asoslangan 29 ta investitsion loyihalar doirasida 3084 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi hamda 196 turdagi respublika iqtisodiyotiga dolzarb bo‘lgan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.

2018-2022 yillarda tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘lari hisobiga qiymati 36,1 mln. AQSh dollarilik 21 ta loyihalar amalga oshirildi. Xususan, 2022 yilda 5 ta loyiha doirasida 2,7 mln. AQSh dollari miqdorida tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘lari o‘zlashtirildi. [10]

Biroq, innovatsion g‘oyalar va loyihalarning moliyalashtirilish holati qoniqarsiz darajada saqlanib turibdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida 2019 yildan buyon respublikamizda innovatsion va startap loyihalarni moliyalashtiruvchi investitsion kompaniyalar va venchur fondlarini yaratish va tashkil etish sohasida qator ishlar olib borildi. Xususan, Respublikada bir nechta investitsiya va boshqaruv kompaniyasi, davlat va xususiy venchur fondi tashkil etildi.

Iqtisodiyotning har qanday tarmog‘ida innovatsiyani joriy etish mablag‘ni talab qiladi. Innovatsion biznesni moliyalashtirish jarayonida esa odatdagidan ko‘ra farqli bo‘lib,

jahon amaliyotida bunday moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri venchur fondi hisoblanadi.

Venchur fondi – bu tavakkalchilik darajasi yuqori, oldindan daromad yoki ziyon ko‘rilishi aniq bo‘lmagan innovatsiya loyihalari va dasturlarini moliyalashtirish va amalga oshirish, shuningdek, innovatsiyalarni joriy qiluvchi tashkilotlarni moliyaviy, konsalting, injiniring va huquqiy qo‘llab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilgan maxsus moliyaviy fondidir. [16]


Venchur fondi — jamlangan pul mablag‘larini faqat yuqori xavfli venchur loyihalariga investitsiya qilish uchun mo‘ljallangan, boshqaruv kompaniyasi boshqaruvidagi investitsiya kompaniyasi.

Ko‘p hollarda venchur kapitali mustaqil fondlar ko‘rinishida bo‘lib, ular kichik va o‘rta korxonalarni investitsiyalash uchun moliyaviy institutlar sarmoyasini o‘ziga jalb qiladi.

Venchur investorlar odatda davlat, institutsional investorlar, banklar, sanoat korxonalari, jismoniy shaxslar vakillaridan iborat bo‘ladi. U yoki bu investorning ishtiroki innovatsion kompaniya rivojlanishining fazasi yoki bosqichi bilan aniqlanadi.

Odatda innovatsion kompaniya rivojlanishini qator faza yoki bosqichlarga ajratib o‘rganish mumkin. Innovatsion kompaniya siklining umumiy davomiyligi “ekish” fazasidan to “chiqish” fazasigacha taxminan 5 dan 7-10 yilgacha vaqtni oladi va sohaning hamda konkret kompaniyaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zgarib turadi. [17]

Kompaniyaning moliyaviy holati sikl davomida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘zgaradi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin (4-rasm.)



4-rasm. Innovatsion korxonaning rivojlanish bosqichlari, pul oqimi va moliyalashtirish manbalari. [19,20,21,22,25]

4-rasmda innovatsion korxona uchun xos bo‘lgan pul oqimining o‘zgarish dinamikasi (cash flow) rivojlanish bosqichlari bo‘yicha ko‘rsatilgan. Unda shuningdek har bir bosqichga ko‘proq to‘g‘ri keladigan va mumkin bo‘lgan moliyalashtirish manbalari ko‘rsatilgan. Pul oqimining mazkur o‘zgarish dinamikasini izohlovchi egri chiziq “egri jey” (J-curve) deb ataladi va uning uchun ekish bosqichidagi boshlang‘ich pasayish xos bo‘ladi. Bu “o‘lim

vodiyasi” (valley of death) deb atalib, biznes konsepsiyasi to’g’riligini isbotlashga pul mablag’larini sarflash oqibatida kelib chiqadi.

Agar korxona bu “vodiy”dan chiqib keta olsa va tashkil topa olsa pul oqimi ijobiy xususiyatga ega bo’ladi, korxona bosqichma-bosqich bozorga chiqish uchun kuch yig’a boshlaydi va keyingi bosqich – ilk o’sish va kengayish bosqichiga o’tadi. Bunda biznesning moliyalashtirilishga bo’lgan talabi sezilarli darajada oshadi.

Innovatsion korxonalar xatarlilik darajasining potensial daromad darajasi bilan mos keladigan ilk rivojlanish bosqichlarida moliyalashtirishning eng maqbul shakllaridan biri ventchur moliyalashtirishdir.

Venchur kapitalining muhim manbalaridan biri ventchur moliyalashtirishning milliy tizimi shakllanishida muhim rol o’ynaydigan davlat mablag’lari deyish mumkin. Ko’pchilik iqtisodchilar davlat mablag’lari hisobidan kafolatli fondlarni yaratish zarurligini ta’kidlaydilar, bu esa ventchur kapital fondlari tomonidan innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning umumiy xatarini kamaytiradi va shu tufayli investorlarning kompaniya rivojlanishining ilk bosqichlariga sarmoya kiritishga bo’lgan qiziqishini oshiradi. Shunday qilib, kafolatli fondlar ventchur investorlari uchun o’ziga xos “xavfsizlik yostiqchalari” rolini o’ynaydi.

Venchur kapitali bozori rivojlanishi uchun davlat-xususiy sherikchiligining turli mexanizmlaridan foydalaniladi. Buning mohiyati shundaki, davlat ventchur fondlarida to’g’ridan-to’g’ri yoki “fondlar fondi” vositachiligi orqali, shuningdek xususiy ventchur fondlari va innovatsion biznesni moliyaviy qo’llab-quvvatlashda o’z ulushi bilan ishtirok etadi.

Umuman, hozirgi vaqtda davlat faol tarzda O’zbekistonda ventchur biznesini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchun pul mablag’larini ajratadi. Biroq ventchur investitsiyalari faqatgina xususiy investitsiyalar kiritilishi sharoitidagina muvaffaqiyatli bo’ladi. Davlat xususiy biznesni jalb qiluvchi sharoitlar (ventchur infratuzilmalar, qonunchilikdagi o’zgarishlar va boshqalar) evaziga davlat masalalarini hal qilishga jalb qilishga yordam berishi kerak.

Venchur kapitalining davlat manbalaridan foydalanish imkoniyatidan tashqari mablag’larning an’anaviy manbasi bo’lgan kredit muassasalari va birinchi navbatda jahon amaliyotida ventchur moliyalashtirishning muhim ishtirokchilari hisoblangan banklarni ko’rib chiqamiz. Tarixan banklar qator mamlakatlarning sanoat rivojlanishini rivojlantirishning muhim manbalaridan biri bo’lgan, ayniqsa ilk bosqichning so’nggi davrlarida. Hozirgi vaqtda bank kreditlari ventchur kapitalistlari uchun birinchi o’rinda turadigan daromadning ichki darajasi (IRR) bilan solishtirganda ancha jozibador ko’rinadi. Biroq, mazkur yondashuvda sug’urta talabi, pul oqimi siklidan qat’iy nazar yillik to’lovlar talabi va boshqalarni o’z ichiga oluvchi bank moliyalashtirishning “yashirin narxi” hisobga olinmagan.

AQShda ventchur fondlarini yaratishda ishtirok etish barcha yirik tijorat va investitsion banklar uchun xosdir. Masalan, “Morgan Stenli” ventchur fondlari, ventchur kapitalining maxsus firmalari yaratilishida ishtirok etadi, ularga kichik innovatsion firmalar bilan hamkorlikni amalga oshirishda yordam beradi va IPO (Initial Public Offering) ni tashkillashtirishni qo’llab-quvvatlaydi.

O’zbekistonda tijorat banklari ventchur faoliyatiga xavotir bilan qaraydi.

Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat.

- Katta kredit xatarlarining mavjudligi. Bank tijoriy tashkilot hisoblanadi va unga ishonch bildirgan mijozlarning omonat va daromadlari uchun javobgarlikni oladi, shuning uchun ularning tartibi minimal moliyaviy xatar sharoitlarida amalga oshiriladi. Bu kreditlashtirishning asosiy prinsiplari – muddatlilik, qaytaruvchanlik, to‘lovchanlik, ta‘minlanganlik kabilarga qat’iy amal qilish orqali kafolatlanadi. Bu tomondan venchur faoliyatini kreditlash tijorat banklarini jalb qilmaydi. Modomiki, kutiladigan natijaning noaniqligida “mo‘may pul”ni talab qiladi;

- bank resurs bazasining cheklanganligi. Bankning kreditlash faolligining pastligiga sabab omonatchilar tomonidan tijorat banklariga ishonch darajasining pastligi bilan bog‘liq uzoq muddatli resurslar hajmining mavjud emasligidir;

- daromad shakllanishining boshqa, ancha kamroq xatarli manbalarining mavjudligi: valyuta ayirboshlash, hisob-kitob operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalar.

Venchur sikl bir nechta investorlar mablag‘larini birlashtiruvchi venchur fond moliyalashtirilishini xohlovchi kompaniya aksiyalarini sotib olishidan boshlanadi. Qabul qilingan mablag‘lardan foydalangan holda kompaniya o‘zining innovatsion loyihasini amalga oshiradi va u muvaffaqiyatga erishgan taqdirda kompaniya qiymati oshadi. Keyinchalik venchur fondning boshqaruv kompaniyasi ilgari sotib olingan aksiyalarni (qiymati bir necha barobar oshgan) pul mablag‘lari evaziga sotadi va mos ravishda yuqori foyda oladi. Shunday qilib, venchur investitsiyalashning hayotiy (yashash, mavjudlik) siklini quyidagicha tasvirlash mumkin. (5– rasm)




5 - rasm. Venchur investitsiyalashning hayotiylik sikli [25]

Odatda bir nechta investorlar mablag‘larini jamlovchi fond ularni diversifikatsiya prinsipini amalga oshirgan holda bir nechta loyihalar o‘rtasida taqsimlaydi. Ta’kidlanganidek ushbu prinsip, fond faoliyati xatarining umumiy darajasini pasaytirishga imkon beradi.

Odatiy venchur fondi tuzilishi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi. Venchur fond – bu mustaqil boshqaruv kompaniyasi tomonidan boshqariladigan umumiy mablag‘lar to‘plamidir. Venchur fondlarni boshqarish kompaniyalari bu pay investitsiya fondlarini

boshqarish uchun maxsus ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lgan ochiq yoki yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar.

Boshqaruvchi kompaniya investorlarning dastlabki majburiyatlarining 2,5%ini tashkil etuvchi yillik kompensatsiya oladi. Bundan tashqari boshqaruvchi kompaniya fond foydasining ma'lum foiziga umid qilishi mumkin (odatda 20%dan ko'p bo'lmagan miqdorda). Ushbu foizlarni to'lash faqat mablag'lardan foydalanish davridagi o'sishni hisobga olgan holda investorlarning fondga kiritgan mablag'lari qoplangandan keyingina amalga oshiriladi. (6-rasm)



6-rasm. Venchur investitsiyaning harakati. [25]

Venchur fondi shakllanish jarayoni “mablag’ yig’ish” (fundraising) deb nomlanadi. O’z faoliyati uchun kerakli mablag’ni yig’gan venchur fondi keyingi muhim bosqich – investitsiyalashga mos keladigan kompaniyalarni saralash va o’rganish bosqichiga o’tadi. Bu bosqich dastlabki saralash (deal flow) va keyingi “sinchiklab o’rganish” (due diligence) bosqichlarini o’z ichiga oladi. Bu ikkala bosqichning yakuniy natijasi – investitsiyalash uchun eng yaxshi kompaniyalarni aniqlash bo’ladi.

Fondlar loyihalarni saralashda turli xil me’zonlarga asoslanadi. Eng keng tarqalgan me’zonlarga quyidagilarni kiritish mumkin: o’ziga xoslik va loyiha yoki kompaniyaning innovatsion yo’nalishga egaligi; istiqbolli loyihalarni qo’llanganligi; professional boshqaruv jamoasining mavjudligi; kompaniyaning bozordagi liderlik uchun raqobatbardosh afzalliklarining mavjudligi; xalqaro standartlarga mosligi.

Jozibador loyihalarni saralashni amalga oshirgan fond kompaniya faoliyati moliyaviy ko’rsatkichlari ustidan qat’iy nazoratni amalga oshirgan holda bir yoki bir nechta investitsion loyihalarni boshqarish jarayoniga o’tadi.

Venchur sikli fondning investitsion bitimdan “chiqish” bosqichi bilan tugaydi, ya’ni aksiyalarning qayta pul mablag’lariga aylanishi yoki IPOni amalga oshirish ro’y beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

O'zbekistonda ventchur kapital fondlarining ishlashi bir qator muammolar bilan bog'liq bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) ventchur fondlarini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish sohasida qonunchilikning mukammal emasligi va uning xalqaro tajribaga mos kelmasligi;
- 2) uzoq muddatli innovatsion loyihalarning amalga oshirishning qiyinligi;
- 3) moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, pensiya va sug'urta kompaniya mablag'lari jalb qilish imkonining yo'qligi;
- 4) fond bozorining cheklanganligi;
- 5) investitsiyalangan kompaniyalardan chiqishdagi qiyinchiliklar.

Investitsiya kompaniyasi o'zining asosiy faoliyati bo'yicha ventchur moliyalashtirish yo'nalishida ventchur fondi ochadi va bunda uning uchun boshqaruv kompaniyasiga aylanadi. Investitsiya kompaniyasi ventchur fondini boshqarish uchun ventchur fondning ustav kapitalini shakllantiradi va pul mablag'larini faqat xavf darajasi yuqori bo'lgan ventchur loyihalari uchun jamlaydi. Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, uni tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasini imzolagan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar ventchur fondi muassislari bo'lishi mumkin.

Umuman xulosa qilib aytganda, ventchur fondlari ham iqtisodiyotning muayyan sektori (ixtisoslashtirilgan ventchur fondlari), ham iqtisodiyotning turli tarmoqlarining (universal ventchur fondlari) innovatsion loyihalarini moliyalashtirishi mumkin.

Venchur fondlar o'zining funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir nechta sherik, ya'ni cheklangan hamkorlar orqali faoliyat yuritadi. Bizning fikrimizcha, innovatsion g'oyalar va loyihalarni investitsiyalash samaradorligini oshirishga ventchur paychilik (ulushli) asosida tashkil etish, keyinchalik, innovatsion loyiha amalga oshirilgandan so'ng ishtirokchilar ulushini strategic investorlarga sotish orqali erishish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Гамидов Г.С., Колосов В.Г., Османов Н.О. Основы инноватики и инновационной деятельности. - СПб.: Политехника, 2000. - Б. 15.
2. Gompers, Paul, and Josh Lerner. 2001. "The Venture Capital Revolution." *Journal of Economic Perspectives*, 15 (2): 145-168.
DOI: 10.1257/jep.15.2.145
3. Аммосов Ю.П. Венчурный капитализм: от истоков до современности. СПб.: РАВИ, 2004. – 372 с.;
4. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия - М.: Эксмо, 2007. -Б. 132
5. Ш.А.Атамуратов. Инновацион тадбиркорлик фаолиятини венчур фондлари орқали молиялаштиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. // Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. 08.00.07- Молия, пул муаммоси ва кредит. –Т.: "IMPRESS MEDIA" МЧЖ 2021. Б.22.
6. Daminova M.B. Iqtisodiyoti taraqqiy etgan davlatlar texnoparklari tajribasini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari // Экономика и социум. 2021. №10 (89).

7. Пинячин Ю., Лю Сяоцзюань. // Технопарки как элемент инновационной инфраструктуры страны. Банкаўскі веснік, Снежан, 2016. <http://www.nbrb.by>articles>.
8. Павлов, Э. Технопарк – важный элемент современной инновационной экономики [Электронный ресурс] / Э. Павлов // Умное производство. – 2014. – № 9
9. Салимов Ш. Технопарк–фактор инновационного развития малого и среднего бизнеса //Экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 3. – С. 106-115.
10. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018–2022 yillardagi asosiy faoliyat natijalari. Toshkent – “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” – 2022. -B 34, 36
11. 2022 yilgi O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi milliy ma’ruza. -Toshkent, 2022 y. -B 85-86.
12. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-mamlakatimiz-tadbirkorlari-bilan-ochiq-muloqot-shaklidagi-uchrashuvda-sozlagan-nutqi>
13. 2017–2021 yillar uchun O‘zbekiston Respublikasi Ilm-fan va innovatsiyalar bo‘yicha milliy ma’ruza. Toshkent — 2022. -B 77-78
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
15. Toxirov J.R. Davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish va rivojlantirishning prinsiplari va ularning ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil. -B 215.
16. Tojiyeva Z. Venchur fond – innovatsiyani moliyalashtirish manbai. - <http://www.biznes-daily.uz>.
17. Ayupov R.H., Baltabayeva G.R. Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari. Monografiya, -T.:TMI, 2018, 235 b. -B.23-26.
18. Cho‘lliyev, S. (2022). O ‘ZBEKISTONDA TRANSFORMATSIYALASHAYOTGAN IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA VENCHUR KAPITALNING O ‘RNI. *Economics and Innovative Technologies*, 10(5), 297-306.
19. Rabbonaqlovich, C. S. (2020). Advantages and distinctive features of venture capital. *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research*, 9(3), 17-22.
20. Rabbonaqlovich, C. S. (2022). VENTURE CAPITAL AS AN ECONOMIC CATEGORY. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 83-87.
21. Rabbonaqlovich, C. S. (2021). The role of venture capital in the innovative development of a transformed economy. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1746-1752.
22. Chulliyev, S. R. (2021). VENCHUR KAPITALI IQTISODIYOTNI INNOVASION RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 596-602.
23. Чуллиев, С. Р. (2020). СОСТОЯНИЕ ВЕНЧУРНОЙ ИНВЕСТИЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ*, 67.
24. Чўллиев, С. Р. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА ВЕНЧУР КАПИТАЛИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(7), 543-547.
25. <https://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi.